

QO'QON XONLIGI TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALASLARI

Xayitvoyeva D

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Shukurov R

Ilmiy rahbar: PhD

Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha juda ko'p yozma manbalar, adabiyotlar va arxiv materiallari mavjud. Ularning aksariyati tadqiqotchilar tomonidan deyarli o'rganilmagan. Sharq manbalarining ba'zilari Qo'qon xonligi va mustamlakachilik davrida Qo'qon va Buxoro tarixchilari tomonidan yozilgan tarixiy yilnomalardan iborat. Boshqa bir bo'lim mavzu jihatidan xilma-xil bo'lib, tarixiy, geografik, she'riy va iqtisodiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yozma manbalarning mazmunini hisobga olgan holda, ularni tarixiy va tarixiy-adabiy manbalarga bo'lish mumkin.

Qo'qon xonligi davridagi manbalarni keng ko'lamli tadqiq qilish va ilmiy muomalaga kiritish mustaqillik yillarida boshlandi. Ushbu manbalarning tavsifi ularning kelib chiqish xronologiyasini hisobga oladi, ularning mazmuni va Qo'qon xonligi tarixini o'rganishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Qirg'izistonlik K.Usenbaev o'z tadqiqotida XIX asrda Qo'qon xonligi tarkibida qirg'iz qabilalari jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar va uning iqtisodiy holati haqida ma'lumot beradi. Farg'ona vodiysidagi qirg'iz qabilalari boshidan oxirigacha xonlik tarkibida bo'lgan. Muallif Chuy vodiysi va Oloy qirg'izlarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini o'rganadi. Qirg'iziston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi V.M. Ploskixning keng qamrovli monografiyasi Qo'qon xonligi davrida qirg'iz xalqining faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Asarda Qo'qon xonligining siyosiy voqealari, qirg'iz qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va ularning hokimiyat uchun siyosiy kurashdagi faol ishtiroki batafsil tavsiflangan. Asarda muallif shuningdek, Qo'qon xonligi davridagi urbanizatsiya jarayonining rivojlanishini zamonaviy Qirg'iziston hududida chegara istehkomlari va qal'alarining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda qisman o'rganadi. Keyingi voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy maqsadlar uchun qurilgan bu inshootlarning ba'zilari keyinchalik Qirg'izistonning hozirgi poytaxti kabi aholi punktlari va shaharlarga aylangan.⁴ T.K. Beysembiyevning dissertatsiyasi va monografiyasi "Tarixi Shoxruhi" materiallari asosida Qo'qon xonligi tarixini o'rganish va yoritishga qaratilgan. Xonlikdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar tarixiy xronologiyada yoritilgan. "Tarixi Shoxruhi" ma'lumotlariga asoslanib, T.K. Beysembiyev XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Farg'onada siyosiy parchalanish, Chodak xojalarining siyosiy hayotdagi roli va yuksalishi, ularning ibtidoiy davlat tizimining teokratiya shaklida shakllanishining boshlanishi va to'ntarish natijasida Ming qabilasining feodal o'zbek elitasining hokimiyat tepasiga kelishini ta'kidlaydi. Dissertatsiyada, "Tarixi Shoxruhi"dan olingan tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilishdan tashqari, T.K. Beisembiyev ilovada jamiyatning ijtimoiy va siyosiy ahvoli haqida qiziqarli

⁴ Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханства. – Фрунзе: Илим, 1977. – 367с.

ma'lumotlarni ham taqdim etdi. T.K. Beisembiyevning yana bir muhim tadqiqoti Qo'qon xonligi tarixshunosligiga bag'ishlangan bo'lib, unda Qo'qon xonligi haqidagi ko'plab manbalar va tadqiqotlar ro'yxati keltirilgan va tavsiflangan. Shunisi e'tiborga loyiqlik, muallif Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarni batafsil taqdim etgan; asarda tarixiy atamalar lug'ati ham mavjud.⁵

Xo'jand shahri, chegara mintaqasining asosiy markazlaridan biri sifatida, Qo'qon xonligining yuksalishi va gullab-yashnashida hamda uning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynadi. Professor N.O.Tursunovning kitobida shaharning xonlik tarkibidagi tarixining turli bosqichlari o'rganiladi.⁶ U Xo'jand tarixi bo'yicha bir qancha keng qamrovli tadqiqotlar yozgan bo'lib, uning etnik tarixi, siyosiy hayoti va XVIII-XIX asrlardagi shaharning savdo, iqtisodiy va madaniy o'sishi haqida chuqur va keng qamrovli ma'lumot beradi. Sovet Ittifoqidan keyingi davr, mustaqillik yillarida olib borilgan adabiyotlar va tadqiqotlar Qo'qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotining turli jihatlarini qamrab oladi. Tadqiqot mavzusini hisobga olgan holda, uni fundamental, tematik va umumiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin. Bu davrda bir nechta akademik nashrlar paydo bo'ldi, ular orasida alohida muhim ko'p jildli "Tojik xalqi tarixi" ham bor, unda Qo'qon xonligi tarkibida tojik xalqi tarixida o'rganilayotgan davr alohida jildda yoritilgan. Unda Qo'qon xonligining qo'shni davlatlar va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari haqida bebaho materiallar mavjud. Kitobda Xo'jand va Ustrushana hududlarini bosib olish voqealari ayniqsa yorqin aks ettirilgan. Mualliflar o'sha fojiali kunlardagi voqealarni realistik tarzda yoritib berishdi. Qo'qon xonligi davrida Markaziy Osiyoning qisqa, ammo asosli etnik tavsifi keltirilgan.⁷ Bu davrdagi adabiyotlar orasida mustaqillik yillarida yaratilgan universitet darsliklari ham bor. Akademik N.Negmatov tahriri ostida bir guruh mualliflar tomonidan nashr etilgan mustaqillik yillarida tojiklar tarixiga bag'ishlangan kitobda Qo'qon xonligi siyosiy hayotidagi ba'zi muhim masalalar ko'rib chiqilgan. "Qo'qon xonligining siyosiy tarixi" bo'limining muallifi taniqli tojik olimi, professor A.K.Mirboboyevdir. Asarda Ming sulolasi ichidagi shiddatli siyosiy kurash, Xo'jand va Ura-Tyube hududlarini boshqargan Minglar va Yuzlar o'rtasidagi qarama-qarshilik va Xo'jandning Qo'qon hududiga qo'shilishi bilan bu kurashning avj nuqtasi yoritilgan. Professor A.K. Mirboboyev shuningdek, Xo'janddagi etnik jarayonlarni ham Qo'qon xonligi, ham Rossiya imperiyasi ichida alohida asarlarda o'rgangan.⁸

O'zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida Qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (Tarixshunoslik tahlili) dissertasiyasida O'zbekiston mustaqillik yillarida Qo'qon tarixnavislik maktabida yaratilgan 14 ta manba nashr etilib, ko'plari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgani haqida ma'lumot beriladi⁹. Undan tashqari qator manbalar tahlil etilib ularning nashr etilish masalalari, bugungi kun tarixshunosligidagi masalalari

⁵ Бейсембиев Т.К. «Тарихи Шахрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.; Его же. Кокандская историография: Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII-XIX веков. – Алматы: ООО Print-S, 2009. – 1263с

⁶ Турсунов Н.О. Шахри офтоби. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 160с.; Его же. Развитие городских и сельских поселений Северного Таджикистана в XVIII – начале XX вв. – Душанбе: Ирфон, 1991. – 540с.;

⁷ История таджикского народа. Том IV. Позднее средневековье и новое время. (XVI в. – 1917 г.) / Под общей редакцией академика Р.М. Масова. – Душанбе, 2010. – С.495.

⁸ Абдуллои Мирбобо. Мукаддимаи таърихи Хучанд. – Введение в историю Худжанда. - Хучанд: Ношир, 2013. С. 72-79.;

⁹ Yakobjanov J.J. O'zbekistonning zamonaviy tadqiqotlarida Qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili). – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023. – B. 15. 14

qiyosiy tahlilini ko'rishimiz mumkin. Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalardagi xonlikning siyosiy, davlat boshqaruv jarayonlari, harbiy ishlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar, ijtimoiy hayoti va madaniy sohasiga oid juda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishi, manbalarda ilgari surilgan masalalar yuzasidan keng tahlil berilgan bo'lib Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixining Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan o'rganilishi borasidagi keng qamrovli axborotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Qo'qon xonligi tarixshunosligini davrlashtirishda uch guruhga, ya'ni:

1. Mustamlaka davri;
2. Sovet davri;
3. Mustaqillik davriga bo'lib o'rganishni taklif etishgan.¹⁰

Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanish jarayonlari XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, ushbu davrda u maxsus fan darajasiga ko'tarilgani, ushbu davrdan boshlab tarixnavislik sohasida xonlik hayotining barcha sohalarini yoritib beruvchi ko'plab qimmatli asarlar yaratilgani haqid tadqiqot doirasida fikrlar ilgari suriladi.¹¹ Qo'qon xonligi tarixining manbashunoslik tadqiqotlari XX asrning 70-80 yillarida ma'lum darajada amalga oshirilganligini e'tirof etiladi. Jumladan, Qo'qon xonligining Xudoyorxon hukmronligi yillaridagi iqtisodiy va xo'jalik hayoti, qolaversa siyosiy jarayonlari tarixi tafsilotlarining manbalarga asoslangan mukammal tadqiqoti tarixchi R.Nabievning monografiyasida o'z aksini topganligi haqida tahlillar beriladi.¹² Enver Xurshut Muhammad Hakimxon to'raning "Muntaxab at-tavorix" asarinining manbaviy jihatlarini tahlil qildi.

2022 yilning 14-15 aprel kunlari "Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixi" va 8-9 iyun kunlari Qo'qon universitetida "Qo'qon xonligining Turkiy xalqlar davlatchiligi shakllanishi va madaniy merosida tutgan o'rni" mavzularida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyalarda bir qator yangi ilmiy fikr va xulosalarning keltirilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.¹³ Bu davrda amalga oshirilgan tadqiqotlardagi mavjud muammolar va kamchiliklar, xonlik tarixidagi hali o'z yechimini topmagan masalalarning asosi sifatida yosh tadqiqotchilarning til bilmasligi, qo'lyozma manbalarni o'qishda va ulardan foydalanishdagi muammolar, ayrim arxiv hujjatlarining (masalan: И-715 fondning ayrim hujjatlari¹⁴) yopiq holatda ekanligi, tadqiqotchilar uchun ilmiy izlanish olib borishga doir metodologik tavsiya va qo'llanma materiallarining yetishmasligi bilan izohlangan tadqiqot materialida.¹⁴

Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi diplomatik aloqalari tarixshunosligi masalasini 1951–2000 yillar doirasida o'rgangan V.T. Ishquvatonov¹⁵ mazkur tadqiqotda sovet davri adabiyotlari bilan birga mustaqillikning dastlabki o'n yilligida muammo

¹⁰ Yakobjanov J.J. O'zbekistonning zamonaviy tadqiqotlarida Qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili). – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023. – B. 31.

¹¹ Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фан. док. ... дисс. –Тошкент, 1998. – 240 б.

¹² Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Феодалное хозяйство Худойрхана. –Ташкент: Фан, 1973. –38с.

¹³ "Қўқон хонлиги давлатчилиги тарихи" мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари. (14-15 апрел 2022 йил). – Тошкент, 2022. –431 б.; "Қўқон хонлигини Туркий халқлар давлатчилиги шаклланиши ва маданий меросида тутган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари. (8-9 июн 2022 йил). –Қўқон, 2022. 43

¹⁴ Yakobjanov J.J. O'zbekistonning zamonaviy tadqiqotlarida Qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili). – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023. – B. 44.

¹⁵ Вишкватов В.Т. XX асрнинг иккинчи ярми тарихшунослигида Қўқон-Россия дипломатик муносабатлари. Тарих фанлари номз. дис... –Тошкент, Тошкент, 2003. – 139 б.

yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlilini keltirib o'tadi. Z.A. Ilhomovning qator tadqiqotlarida ham Qo'qon xonligining tarixshunoslik va manbashunoslik masalalariga to'xtalib o'tilganini qayd etilgan. Muallifning "Qo'qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari" nomli kitobida xonlik tarixiga oid mustamlaka va sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarga batafsil to'xtalib, ularning tahlilini amalga oshirgan. Muallif o'z tadqiqotlarida aksariyat tarixchilardan farqli ravishda Qo'qon xonligining diplomatik aloqalarida faqat Rossiya bilan chegaralanib qolmasdan, xonlikning bir qator xorij davlatlari bilan aloqalari yoritilgan adabiyotlarni tahlil qilishga harakat qilgan, Tojikistonlik tarixchi S.Elshibayevning tadqiqotidan Janubiy Qozog'iston va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy jarayonlar, keyinchalik uning bo'ysundirilishi, ikki o'rtadagi ijtimoiy iqtisodiy va etnik aloqalar kabi masalalar o'rin olgan.¹⁶ Qirg'iziston va Qozog'istonlik tarixchilari tomonidan Qo'qon xonligi xususida amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar uning siyosiy tarixi va bevosita Aliquli Amirlashkarning faoliyatiga aloqadorligini ko'rish mumkin. Jumladan, B.Aytay¹⁷, O'.Ebdiraman¹⁸, B.Abitov¹⁹, M.Akmatov²⁰, T.Kenensariyevlarning²¹ tadqiqotlarida yuqoridagi masala o'rin olgan

Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixining o'rganilishida yana bir muhim ish amalga oshirildi. Bu "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi to'plamidir. Ushbu kitob albomi 2017-yildan keyingi Prizedentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'zbek xalqining tarixiy, badiiy va ma'naviy merosini saqlash va yanada ko'paytirishni davlat siyosati doirasiga olib chiqilishi g'oyalari ilgari surilib O'zbekiston madaniy merosini katologlashtirish ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida milliy va xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda ijtimoiy mas'uliyatli biznes vakillari ko'magida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Firdavs Abduxoliqovning "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" mualliflik turkumining 50 jildli kitob-albomlari nashr etildi, u o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi. Bu kitoblar O'zbekiston madaniy merosi durdonalari haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, dunyoning 30 dan ortiq davlati kolleksiyalariga bag'ishlangan.²² Shuning doirasida "Qo'qon" davlat muzey qo'riqxonasi to'plami ham nashr etildi. To'plam doirasida Qo'qon xonligining tarixiy hayotini yorituvchi turli manbalar, numizmatika kolleksiyasi, qo'lyozma va hujjatlar, yog'och va ganch o'ymakorligi, badiiy metallar, zargarlik va kulolchilik durdonalari, matolar va liboslar, hamda do'ppichilik, an'anaviy kashtachilik va tasviriy san'at kabi bo'limlarni o'z ichiga olib Farg'ona vodiysining uzoq o'tmishiga oid madaniy qiyofasi uning shakllanishi, o'ziga xosliklari tarixiy davr mobaynida madaniy meros an'analari rivojlanishi va usta-shogirdchilik an'analari hududda taraqqiy etishi hamda davrlar mobaynida madaniy hayotidagi o'zgarishlar bunga ta'sir etgan hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'daniy omillarning ta'siri keng yoritilib o'tilgan.

¹⁶ Елшибаев С. Южный Казахстан и Кокандское ханство в XVIII – середине XIX веков.: Автореф. дисс ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2013.

¹⁷ Бахадыр Айтай. Әлімқұл Хасанбиұлы Әмірлашкер // okmpi.kz

¹⁸ Өтеген Әбдіраман. Қоқанның соңғы ханы қыпшақ Әлімқұл Әмірлашкер. -Бишкек: Maxprint, 2016.

¹⁹ Абытов Б. Алымбек Датка и Алымкул Аталык: соратники или конкуренты? // <http://incredibleosh.kg>

²⁰ Акматов М. Алымкул Аталык // http://aimak.kg/taryhyi_okuyalar

²¹ Кененсариев Т. Алымкул Лашкер баши... // https://kyrgyz.ru/articles/kyrgyz/kenensariyev_alymkul/. O'sha muallif. Алымкул Амирлашкер. -Бишкек: Maxprint, 2019.

²² "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami." – T.: Kokand State Museum-Reserve, 2021.

Qo'qon davlat muzeyi katalog to'plamida "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi 95 yoshda deb nomlangan ma'lumotlarda Manzuraxon Mansurova shahar aholisining sevimli ziyoratgohi va faxr uyg'otadigan joy sifatida ta'riflaydi. Qo'qonda birinchi rasmiy muzey 1925-yilda sobiq Xudoyorxon o'rdasi binosida ochilgan. Bugungi kunda jami eksponatlar soni 47 712 tani tashkil etadi. Ularni to'ldirish borasidagi ishlar hali to'xtamagan.²³ "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi 1873 yilda qurilgan²⁴.

Numizmatika kolleksiyasi nomli sahifada Manzuraxon Mansurova bergan ma'lumotlarga ko'ra voha tangalardagi o'ziga xos jumboqli taraflari haqida tangashunoslikdagi dolzarb savolga asos bo'ladigan qism berilgan. Bunga ko'ra ma'lumki Qo'qon xoni Sulton Sayyid 1864-yilda Yoqubbekni Qoshg'arga yuboradi. Yoqubbek bu yerda mustaqil Yettishahar davlatini tuzadi va oltin, kumush, mis pullar zarb qildiradi. Bu pullar o'zining emas, balki Sulton Sayyidning otasi Mallaxonning nomini yozdiradi. Tangalarning yuzasiga "Sayid Muhammad Mallaxon Bahodir", orqasiga esa "Zarbi dorussaltanat Xo'qandi latif" deb yozilgan²⁵.

Jumboqli tomoni bu pullar zarb qilinganida Mallaxon allaqachon olamdan o'tgan, shuningdek tangalar Qoshg'arda zarb etilgan bo'lsada, "Zarbi Xo'qand" deb yozilgan va tangalarga Mallaxon hukmronlik qilgan 1858-1862 sanalari emas, balki Yoqubbek Yettishaharda davr surgan 1867-1877 sanalari qo'yilgan edi. Bu kabi tarixiy o'sha davrga xos harakatlar siyosiy jarayonlardagi o'z xos an'anachilik harakatlari namoyish etgan sir emas. Davlatchilikning o'ziga xos elementar asosi sifatida ko'rishimiz ham mumkin. Qo'lyozmalar va hujjatlar sarlavhasida yozilgan Abdulatif Turdialiyev²⁶ bergan ma'lumotlarga ko'ra, bugun qo'riqxona fondida nodir sharq qo'lyozmalari 84 ta ekanligi, ular 1950-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davr mobaynida yig'ilgan haqida ma'lumotlar berilgan.

Davron Mamatqulovning yog'och va ganch o'ymakorligi nomi ostidagi sahifasida I xalqaro hunarmandchilik festivalida Qo'qon xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish davomida voha hududiga "Jahon hunarmandchilik shahri"²⁷ nomi berilishida, yog'och o'ymakorligi san'ati asosiy mezon ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu yo'nalishning bir tarmog'i arava ishlab chiqarishdir. O'rta Osiyoda eng mashhur aravalar Qo'qonga tegishli. Uning o'ziga xosligi g'ildiraklarining kattaligida.

Badiiy metal sahifasida Qo'qonning mis kandakorligi buyumlari shakllariga ko'ra boshqa hududlardagi an'anaviy mahsulotlarga qaraganda ancha farq qilgani ta'kidlanadi. Ulardagi o'ziga xoslik boshqa na'munalarga qaraganda nomutanosibliklarilari ajralishi hamda juda kengligi va tagliklari baland ishlangani bilan farq qilishi, shamdonlari ham takrorlanmasligi va boshqa hududlarda ham ishlab chiqarilmagani haqida Davron Mamatqulov, Akbar Hakimovlar bergan ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

Muhrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Voha hududida ham shayxlar, qozilar, savdogarlar, tabiblar, amaldorlar ulardan foydalanishgan. Qo'qondagi

²³ legacy.uz

²⁴ oz.sputniknews.uz

²⁵ "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami." – T.: Kokand State Museum-Reserve, 2021.

²⁶ "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami." – T.: Kokand State Museum-Reserve, 2021.

²⁷ "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami." – T.: Kokand State Museum-Reserve, 2021.

muhrlardagi o'ziga xos jihat ulardan shifobaxsh va himoya qiluvchi tumorlar sifatida foydalanishgan. Etnik tushunchalar ham mavjud ma'lumotlarda. Ya'ni muhr bosilgan qog'oz suvga solinib hosil bo'lgan eritma dori sifatida qabul qilingan. Buni tasdig'i sifatida tarixiy dalil sifatida jami 21 dona muhrlar muzey-qo'riqxonasida saqlanmoqda. Bundan ko'rishimiz mumkinki muhr nafaqat siyosiy manfaatlar, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyatga molik vazifalarni o'tagan.

Zargarlik an'analari. Arxelogik ma'lumotlarga qaraganda Farg'ona vodiysida zargarlik qadimdan rivojlangan. Muattarxon Nosirova bergan ma'lumotlar ko'ra voha hunarmandlari eng sevimli xomashyosi kumush bo'lgan.

Xalqning madaniy qiyofasi va o'zligini ularning kiyimlaridan ham bilish mumkin. Qo'qon do'ppilari ham o'ziga xos elementlari bilan ajralib turadi.

Qaysidur ma'noda ularda tarix yashirin. Irina Bogoslovskaya, Muattarxon Nosirova yozgan ma'lumotlarga ko'ra Umarxonning vafotidan keyin turmush o'rto'g'i, Nodirabegim Qo'qon xalqiga murojlat qilgan " Ey yurtdoshlarim, mening erim, mening sultonim vafot etgangan keyin hayotim zulmatga botdi.

Siz shunday biror narsa yaratingki, men uni har ko'rganimda tun kabi qora, qalampir kabi achchiq hayotimini doimo yodga solib tursin", va ustalar oq-qora tUSDagi do'ppi yaratishgani haqidagi afsonalar vujudga kelgan.